



## “Bahrom va Gulandom” dostonining badiiy ahamiyati xususida

**Charos Avazova,**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi

[charosavazova@gmail.com](mailto:charosavazova@gmail.com)

**Annotation.** Scientific researches on textual studies and literary source studies play an important role in conveying the world of topics related to humanity and its rich spiritual heritage to the people by demonstrating the power and possibilities of fiction in words. In the article, the language features of the epic "Bahrom and Gulandom", aspects of the use of artistic arts, and the creative skills of the author of the prose translation are shown on the basis of artistic analysis. In this respect, this work is a practical contribution to the above research.

**Key words:** artistic arts, epic, Bahram, tashbih, love, rhyme, etymological dictionary.

Asli fors tilida yaratilgan “Bahrom va Gulandom” dostonining Yaqin sharq xalqlari orasida turli versiyalari keng tarqalgan. Hozircha “Bahrom va Gulandom” dostonining beshta o‘zbekcha varianti ma’lum (Sobir Sayqaliy va Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li asarlari, Sidqiy Xondayliqiyning nasriy tarjimasi, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 719 inventar raqamli muallifi noma’lum doston<sup>1</sup>, Xislat buyurtmasiga ko‘ra Mullo Abdulloh hoji Mirkarimboy o‘g‘li tomonidan qilingan nasriy tarjima<sup>2</sup>) Biz quyida Xislat buyurtmasiga ko‘ra tarjima qilingan dostonning til xususiyatlariga, badiiy san’atlardan qay darajada foydalanganlik jihatlarga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Ijodkorning badiiy mahoratini belgilovchi asosiy mezon sifatida asrlardan beri tashbih san’atidan foydalanish darajasi asos qilib olingani ma’lum: “Har bir shoirning katta mahorati tashbihlarda ko‘rinadi. Tashbihda qudratliroq bo‘lgan har bir shoir jahongirroqdir” (Said Nafisiy)<sup>3</sup>

**Tashbih** biror predmet yoki hodisaning xususiyatini shu xususiyati bor boshqa narsa yoki hodisa orqali tasvirlashga asoslanadi. Quyida dostonda tashbih san’ati qo‘llanilgan ba’zi o‘rinlarni keltirib o‘tmoqchimiz:

1. Bahrom nomani bo‘sa qilub boshig‘a toj qilub, yana ko‘zig‘a to‘tiyo qilub ochib ani mazmunig‘a voqif bo‘lub zor-zor chun **abri navbahor** ko‘zidin shashqator yosh to‘kub bag‘rin qonin oquzub bo‘yla nomai ahvol ko‘yon yozdi
2. Umidim **gul yuzung** bir yo‘li ko‘rsam  
Muqom aylab hamisha munda tursam.
3. Na derman? **Ka’bamsan boshim ururg‘a**  
Ki sandin o‘zga yo‘q sajda qilurg‘a

<sup>1</sup> Мухиддинов М. Нурли қалблар гулшани. – Тошкент: Фан, 2007. - 112 б

<sup>2</sup> Тожибоева О. Алишер Навоий «Хамса» сининг насрий баёнлари: тамойил, мезон ва услуб. – Тошкент: 2021. -34 б

<sup>3</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunodlik. Darslik. – T.: TAMADDUN, 2018.



# The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 8, July, 2022.

Website: [www.peerianjournal.com](http://www.peerianjournal.com)

ISSN (E): 2788-0303

Email: [editor@peerianjournal.com](mailto:editor@peerianjournal.com)

4. Sarvoso emas **oftoboso** tururki, hech bani odam alarni husnin ta'rifin qila bilmagaylar. Gulandom g'oyat hayratidin **gulni bargi kabi** sabo shamoli larzon qilgondok larzaga keldi.

5. Ul viloyat mardumlarini had hazor shamlari yoqilgan o'shal qasrda bog'xona ravshan bo'lubdurki, **go'yoki kunduz erur**.

6. Alarni ham **cho'fon qo'y ushlag'ondek** ushlab bog'lab qo'ydi.

**Talmeh** arabcha so'z bo'lib, ma'nosi "chaqmoq chaqilishi", "bir nazar tashlash" demakdir. Badiiy san'at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir.

Dilim ham, qasdim ham nung'a o'xshar

Mani hayronlig'im **Majnung'a** o'xshar

Dostonda **mubolag'a** san'atidan ham ustalik bilan foydalanilgan. Ma'lumki, mubolag'a (ar.-kattalashtirish, kuchaytirish) adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol harakati yoki holatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati bo'lib, bu xil tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yanada yaqqol namoyon bo'ladi, o'quvchi ko'z oldida yorqinroq gavdalanadi.

Sani hajr-u firoqingdin **ko'zim qon**

Bu tig'-xanjaringdin qo'rqmag'ay jon

Ko'zni ba'zi shoirlar daryoga, ba'zilar suv omboriga o'xshatishadi. Shahzoda Bahrom Gulandomig'a yozgan nomasida "ko'zim qon" jumlasini qo'llaydi. Garchi bu yangi mubolag'a hisoblanmasa-da, oshiq yigit holini ta'sirliroq yoritishda katta o'rin tutgan.

Fig'on etsam ko'yingda to **bo'lub xok**

Maliklar yig'lag'aydir, charx, aflok.

Yoki

Agar **jismimni tufroq aylasang** ham

Kelib man birla suhbat ayla bir dam.

Yana bir misol:

Shahzoda ikki oyog'in mahkam ushlab ko'tarub yerga chunon urdiki go'yoki birga naqsh bo'ldi.

**Baroati istehlol** san'ati (ar. Baroat- bir sohada ustunlik, istehlol-yangi oyni ko'rish talabi) asarning qaysi mavzuga bag'ishlanganiga ishora qilishga asoslangan badiiy san'atlardan bo'lib, bunda o'quvchi muallifning asar debochasi; masnaviy, qasida yoki marsiya avvali, kitobning bob va fasllari boshida **kiritgan so'z** hamda fikrlaridan asar va uning muayyan bobining mavzusi, mundariyasi yoki asosiy mazmunini bilib olish imkoniga ega bo'ladi. Ko'pgina adabiyotlarda baroat-mahurat, fasohat, ravshanlik, fazilat, ustalik hamda fazl-u hunarda yetuklik sifatida talqin qilinsa, istehlol yangi oyni ko'rish talabi ma'nosini anglatadi. G'iyosiddin Muhammadning "G'iyos ul-lug'at"ida "Munshaot"ga tayanib ma'lumot berilishicha, istehlol chaqaloqning tug'ilish jarayonida chiqargan ovozi bo'lib, uning o'g'il yoki qizligini shunga qarab bilishgan. Ilmi badi'ga doir manbalarda ta'kidlanishicha, muqaddimaning eng yaxshisi baroati istehlolga ega bo'lganidir. "Bahrom va Gulandom" dostonining avvalida farzandli bo'lgan "shohni ko'ngli **gulandom** kabi shukufta bo'lub, maqsud qushi qo'lig'a qo'nub, haddin fuzun ta'rifdin parvona ul shoh xursandlik qilub, xayr-ehson eshigini ul shaharni fuqaro va masokinlarin yuzig'a butun ochub saxovat qilaberdi" deya ta'riflanadi. Ushbu gapda qo'llanilgan "gulandom kabi" o'xshatishi orqali dostonning asosiy qahramoni bo'lgan qizga ishora qilinayotganini sezish mumkin.



# The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 8, July, 2022.

Website: [www.peerianjournal.com](http://www.peerianjournal.com)

ISSN (E): 2788-0303

Email: [editor@peerianjournal.com](mailto:editor@peerianjournal.com)

**Istiora** (ar.- oriyatga yoki omonatga olish) soʻz yoki iboralarni sheʼrda asl maʼnosida emas, balki majoziy maʼnoda ishlatishga asoslangan badiiy sanʼatdir. Shams Qays Roziy istiorani majozning koʻrinishlaridan biri sifatida taʼriflaydi. Rashiddin Vatvot esa istiora sanʼati barcha tillarda mavjud va benihoya goʻzal sanʼat ekanligini, agar u tabiiy boʻlsa soʻzga goʻzallik bagʻishlashini taʼkidlaydi. Dostonda Bahrom togʻda yashovchi pir Ravshanzamir koʻshkida Gulandom suratini koʻrganida, suratdagi qiz quyidagicha taʼriflangandi: “hur manzar, gʻilmon atr, moʻrchamiyon, gʻuncha dahan, ofatijon oshubdur, on fitna zamon, gulandom, qaboq bodom, kumush badan, toʻlmish oy...” Shuningdek,

To visolingʻa toʻyolmay zorman

**Ganji gʻam** ichra qolib bemorman

Bir tarahhum aylagʻil, yorim, koʻrub

**Hajr dardidin** mani zorim koʻrub.

Man na derman ey nigoro, nozanin

Boʻlmadim **ishq xirmonidin** xusho chin.

Yoki

Shahringizga **ishq havosi** birlan borub ermish, bas ani topub Dasturgʻa berub yuborsalar.

Dostonda istiora sanʼatidan nihoyatda koʻp va xoʻb foydalanilganligi asar qiymatini oshirgan: “Davlat Gulandom-**shirin kalomni** nomayi xitob anjomisin Bahromni qoʻligʻa berdi. Bahrom nomani boʻsa qilub boshigʻa toj qilub, yana koʻzigʻa toʻtiyo qilub ochib ani mazmunigʻa voqif boʻlub zor-zor chun **abri navbahor** koʻzidin shashqator yosh toʻkub bagʻrin qonin oquzub boʻyla nomai ahvol koʻyon yozdi.

Dostonda mushtarak sanʼatlardan **tanosub** yoki **muroat un-nazir** (baytda maʼno jihatidan bir-biriga yaqin va oʻzaro mutanosib soʻzlarni qoʻllashga asoslangan badiiy sanʼat) dan ham foydalanilgan:

**Gʻarib-u bekas-u tanho** boʻlubman

Koʻrub bir yoʻl yuzung shaydo boʻlubman.

yoki

Ey Xudoyo man bukun dildor ila hamroh boʻlub

**Mehnat-u gʻamlar** ketub ham shod, ham ogoh boʻlub.

Va yo

Soʻngra **kavkaba** va **asʻasa** va **dabdaba** birlan shahzoda Bahromni oʻshal qasrigʻa kirguzub, kam-kam oʻshal yigitlar chiqub kettilar.

**Tazod** (ar. -zid qoʻyish, qarshilantirish) sanʼati ham dostonning muayyan oʻrinlarida qoʻllanilgan:

Sani hajringda **kecha** to **sahargoh**

Manga yoʻq hamdame, gʻubor, nola, oh.

**Tashxis** (arab. — shaxslantirish) — jonlantirish badiiy sanʼatining bir turi; turli narsalar, hayvonlar, qushlar, oʻsimliklar va boshqalarga insoniy xususiyatlarni koʻchirish sanʼati. T. ogʻzaki nutqda ham, badiiy asarlarda ham keng qoʻllanadi. T. badiiy tasvirning aniqroq, yorqinroq, boʻlishiga xizmat qiladi.

Ayo, ey kalbin bogʻ-saodat

**Qilub har lahzada dardim ziyorat**



# The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 8, July, 2022.

Website: [www.peerianjournal.com](http://www.peerianjournal.com)

ISSN (E): 2788-0303

Email: [editor@peerianjournal.com](mailto:editor@peerianjournal.com)

Dostonda keltirilgan ushbu baytda dard jonlantirilgan bo'lib, u xuddi odamlar kabi ziyorat qilinadi.

“Bahrom va Gulandom” dostoni dastlab xalq og‘zaki ijodida paydo bo‘lganligi uchun ham **saj san‘ati** asardagi eng yetakchi badiiy san‘atlardan hisoblanadi. Sajlangan matn ravon o‘qiladi, ohangdorlik va kuchli emotsionallik tug‘diradi, kishi xotirasida mustahkam saqlanib qoladi:

- ✓ ... Ey oftobi falak **ra’noliq** va ayyomi tag‘ofil besha **istig‘noliq**...
- ✓ ...qadim zamonda Rum shahrinda bir oqil va **dono** va husn bobida **barno**, ko‘rmoqg‘a yuzi **xushliqo**...
- ✓ ohu **ko‘zlik**, oftob **yuzlik**, shirin **so‘zlik**
- ✓ Gulandom **otlig‘**, shakardin **totlig‘**, hur **sifotlig‘**, so‘zi qand-u **nobotlig‘**, yuzi **oftob**, o‘zi **mohtob**, zulfi **pechtob**, qaddu qomati sarv **antob**, ko‘ksida nozi bor. Ani ko‘yida ko‘blarni ozori bor, har shirin-shakar **holvaytar**, ikki kokili monandi **ajdar**, labi **kavsar**, hur **manzar**, g‘ilmon atr, mo‘rchamiyon, g‘uncha dahan, ofatijon oshubdur, on fitna **zamon**, **gulandom** qaboq **bodom**...
- ✓ Xususan alarni orasida ikki parizod kelurki ko‘zlarini **suzub**, kokillarini **tuzub**, Gulandomni ko‘nglini **buzub**...
- ✓ Bahrom nomani bo‘sa **qilub** boshig‘a toj **qilub**, yana ko‘zig‘a to‘tiyo **qilub** ochib ani mazmunig‘a voqif **bo‘lub** zor-zor chun abri navbahor ko‘zidin shashqator yosh **to‘kub** bag‘rin qonin **oquzub** bo‘yla nomai ahvol ko‘yon yozdi

**Qofiya** (arab. — ergashish, izidan borish) — she‘riy misralarning muayyan o‘rnida ohangdosh so‘z yoki so‘z birikmalarining izchil takrorlanib kelishi. Qofiya she‘rning mazmuni, janri, shakli va kompozitsiyasida muhim o‘rin egallaydi. U hosil qiluvchi so‘zlarning ohangdoshligi o‘zak bilan o‘zak yoki qo‘shimcha bilan qo‘shimcha o‘rtasidagi uyg‘unlik tufayli yuzaga keladi.

**Muqayyad qofiya (o‘zak qofiya)** – bunda qofiya so‘z faqat o‘zakdan iborat bo‘ladi, ya‘ni ravyidan so‘ng qo‘shimcha kelmaydi.

1. Sani hajringda kecha to **sahargoh**

Manga yo‘q hamdame, g‘ubor, nola, **oh**.

Fig‘on etsam ko‘yingda to bo‘lub **xok**

Maliklar yig‘lag‘aydir, charx, **aflok**.

Vafodoringman, ey mahbub **sarkash**,

Mani ko‘b xotirim qilma **mushavvash**

2. Man na derman ey nigoro, **nozantin**

Bo‘lmadim ishq xirmonidin xusho **chin**.

**Mutlaq qofiya** – bunda qofiya so‘z o‘zak (negiz) va qo‘shimchalardan tashkil topadi.

1. Vaqif o‘lmayin bu qul **ahvolig‘a**

Rahm qilmayin bu tan **jamolig‘a**

2. Muqarrardur bu dunyoda qulum to‘ymas **visolig‘a**

Dilim o‘yg‘a kelganda bo‘lub xursand **xayolig‘a**

3. Yo Rabki, qulungni qil o‘shal **yorlardek**

Murodig‘a yettur o‘shal **dildorlardek**.

4. Davlat-u umrung uzun qilsun **Xudo**

To qiyomat boqiy bo‘lg‘il ey **shoho**

Biroq ikki o‘rinda she‘riy baytda qofiyalanish tizimi buzilgan:



# The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 8, July, 2022.

Website: [www.peerianjournal.com](http://www.peerianjournal.com)

ISSN (E): 2788-0303

Email: [editor@peerianjournal.com](mailto:editor@peerianjournal.com)

1. Yoki bo'lsam bir murod bul **osmon** ustidaman  
Yoki oshiqlar kabi doim bu **yo'l** ustidaman.

2. Biyobonlar aro yo'lingda **tanho**,  
Tilimda nola, og'zimdadur **oh**.

Baytning shakliy va emotsional ma'no jihatidan olib qaraganda radif ham muhim o'rin tutadi. **Radif** (arab. — ketma-ket keluvchi) — Sharq xalqlari, shu jumladan, o'zbek she'riyatida misra yoki bayt oxirida qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi so'z, ibora. Radif qofiya bilan boshqariladigan ohangdoshlikni, tovush uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi, she'rga musiqiylik va ritmik ohang baxsh etadi.

1. Ey Xudoyo man bukun dildor ila hamroh **bo'lub**  
Mehnat-u g'amlar ketub ham shod, ham ogoh **bo'lub**
2. G'arib-u bekas-u tanho **bo'lubman**  
Ko'rub bir yo'l yuzung shaydo **bo'lubman**.
3. Bir tarahhum aylag'il, yorim, **ko'rub**  
Hajr dardidin mani zorim **ko'rub**.

Dostonda Sayfur va uning singlisi Sarvoso o'rtasidagi aka-singillik munosabatiga, aniqrog'i singil so'zi o'rniga "hamshira", "xesh" so'zi ishlatiladi:

1. "Anda Sayfur turub aydiki, ey shohi bokaram agar ijizat bo'lsa man **hamshiramni** malikani xizmatlarig'a yuborgaymen ani rozi qilur deb.
2. Gulandom shakar xandong'a xabar keldiki, Sarvoso- Sayfurni **hamshirasi**, Ruhafzoki ani nomzod xotuni kelur emishlar deb.
3. Gulandom so'rdiki, Sayfurni **hamshirasi** qaysilaringiz turur deb.
4. Bular shahzodani xizmatig'a kelub o'tgan mojarolarni bayon qildilar ersa, shahzoda Sayfurg'a aydiki, "Nima dersan? **Xeshingni** shohg'a berurmusan?"

Etimologik lug'atdan ushbu so'zning singil so'ziga qay ma'noda aloqador bo'lishini tekshirib ko'rdik:

**HAMSHIRA** -bu ot tojik tilida "birga" ma'nosini ifodalaydigan ham- old qo'shimchasi bilan "sut" ma'nosini anglatadigan shir otidan tuzilgan hamshir sifatiga -a qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan bo'lib, asli "bir onani emgan ayollar bir-biriga nisbatan" ma'nosini anglatib, keyinchalik "singil", "shifoxona xodimasi" ma'nosini anglatish uchun ishlatilgan<sup>4</sup>

Dostondagi ba'zi so'zlarning ifodalanishi ham e'tiborimizni tortdi. Xususan,

1. Agarchi oshiqing dunyoda ko'bdur  
Maningdek **bovafo** bir yor yo'qtur.
  2. ...on fitna zamon, gulandom, qaboq bodom, kumush badan, **to'lmish** oy
  3. Sayfur ham bajonidil qabul qildi va yana arz qildiki: "Ey shahzoda, mani bir **qattig' muhim** maqsudim bor,  
Bundan tashqari tarjimon dostonda ba'zi so'z o'yinlarini ham keltirganki, ular asarga qo'shimcha badiiy- estetik qiymat beradi:
1. Anda **Sarvoso** Gulandom qaddi **sarvososig'a** nazar qilub boshdin to oyog'ig'a malohatta qilub ko'rarki, bir mahbubayi jahonki, andog'shakil-u shamoyil parizodlarni ichida ham yo'qturur.

<sup>4</sup> <https://uz.wiktionary.org/wiki/hamshira>



# The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 8, July, 2022.

Website: [www.peerianjournal.com](http://www.peerianjournal.com)

ISSN (E): 2788-0303

Email: [editor@peerianjournal.com](mailto:editor@peerianjournal.com)

2. Ertasi turub yana yurub **tushda** bir joyg'a **tushub** ul otgan shikorlarin kabob qilub yeb Shuningdek, dostonda **Xorazm shevasiga oid bir olmosh** ham qo'llanilgan: "Kim turursan, qaydin kelursan, **nerg'a** borursan deganida shahzoda Bahrom aydiki, ey pir, avval san asling va ahvolingni bayon qil, so'ngra man bayon qilurman, dedi".

Tilimiz fors tili daryosidan ham suv ichganligi, ikkilamchi doston fors tilidan tarjima qilinayotganligi uchun ham unda fors-tojikcha so'zlar anchagina:

1. Sarvoso javob berdiki, emdi ani taraddud qilur, shahzoda Bahrom **domod** bo'lur so'ngra Sayfur **domod** bo'lg'ay.

2. Gulandom so'rdiki, Sayfurni **hamshirasi** qaysilaringiz turur deb.

Asarda "**askar**" so'zini ishlatilishi ham e'tiborimizni tortdi. Forscha asl nusxada ushbu so'z qo'llanmagan. Mulla Abdulloh hoji 1913-yilda ushu dostonni tarjima qilish jarayonida kiritgan bo'lsa kerak:

Bas shoh amr qildiki, **askarlardin** polvon yigitlarni ajrattilar.

Dostonda qofiyaning bir qancha turlaridan unumli foydalanilgan.

Umuman olganda, nazmdagi o'ziga xos joziba, ohangdorlikni tashkil etuvchi badiiy san'atlar, takror va juft so'zlar, ritorik so'roq gaplar, nasrda qo'llanilgan saj biz o'rganayotgan dostonni alohida qimmatga ega matn ekanligidan darak beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Bahrom va Gulandom". Toshbosma, Aziya nashriyoti, 1913.
2. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunodlik. Darslik. – T.: TAMADDUN, 2018.
3. Tojiboyeva O. Alisher Navoiy "Xamsa"sining nasriy bayonlari: tamoyil, mezon va uslub. – Toshkent: 2021.
4. Мухиддинов М. Нурли қалблар гулшани. – Тошкент: Фан, 2007.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014.
6. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Тошкент: Фан, 1978.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xislat>